

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
instituti rektori

O.SH.Bazarov  
06 2024 yil

Ro'yxatga olindi № 05102/068  
2024 yil

“INSTITUSIONAL IQTISODIYOT”  
fanining  
O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot.
- Ta'lim sohasi: 310 000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar;
- Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi 2024-yil

Fan/modul kodi INSFCO6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	76	104	180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Institutsional iqtisodiyot – bu iqtisodiy nazariya va xo'jalik amaliyotini institutsional o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligida o'rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarning ilmiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalish G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishi, talab va taklif qonunlarining ishlashi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning xulq-atvori, bozor va ma'muriy mexanizmlarning faoliyat ko'rsatishi, iqtisodiy o'sish va shu kabi boshqa bir qator jarayonlar va hodisalarni o'rganishda keng tadbir etib kelinmoqda.</p> <p>Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilmoqda. Shularni hisobga olganda jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda "Institutsional iqtisodiyot" fanining roli beqiyosdir.</p> <p>Shu bois institutsional muhitni faollashtirish, faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotni bilish va uni rivojlantirish qonuniyatlarini belgilashning samarali vositasi zarur. Ana shunday vosita bo'lib institutsional iqtisodiyot hisoblanadi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda institutsional iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot subyektlari faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – talabalarga iqtisodiyotda institutlar tizimi rivojlanishi, mulk huquqlari, ular shakllari faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni, davlat va uy xo'jaligi kabi institutlarni, institutsional islohotlarni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>I-Mavzu: "Institutsional iqtisodiyot" fanining predmeti, mazmuni va tamoyillari</b></p> <p>Institutsional islohotlar va institutsional o'zgarishlar tushunchasi. Institutsional siyosat va institutsional infratuzilma faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Institutsional nazariyaning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. Institutsionalizmning metodologik asoslari. «Eski» va «Yangi» institutsionalizm. Neoinstitutsio-</p>		

nalizmning asosiy yo'nalishlari. D.Nort, T.Veblen va J.Kommonsning institutsional konsepsiyalari.

**II-Mavzu: Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli**

«Institut» va «norma» tushunchalarining mohiyati. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi. Institutsional matritsa. Institutsional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi.

**III-Mavzu: O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorlikni modellashtirish**

O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari. Ustuvor strategiyalar. Neshu, Shtakelberg va Pareto bo'yicha muvozanat turlari. O'zaro harakatlar modellari klassifikatsiyasi. Takrorlanuvchi o'yinlar va ularning mohiyati, modellari.

**IV-Mavzu: Reja instituti va bozor instituti**

Iqtisodiyot konstitutsiyalarining shakllanishi. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari. Bozor konstitutsiyasi normalari. Mulkdchilik huquqlarini iqtisodiyot asoslash.

**V-Mavzu: Transaksiya va transformatsiya xarajatlari hamda ularni tahlil qilishga nisbatan yondashuvlar**

Transaksiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Kouz-Uilyamson yondashuvi. Transformatsiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Nort yondashuvi. Transaksiya xarajatlarini optimallashtirish tajribasi.

**VI-Mavzu: Xufyona iqtisodiyot**

Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari. Xufyona iqtisodiyot turlarining tasnifi va uni baholashga nisbatan yondashuvlar. Xufyona bozor institutsional tizim sifatida. Jahonda xufyona iqtisodiyoti.

**VII-Mavzu: Mulkdchilik nazariyasi va mulkdchilik shakllari rivojlanishining evolyutsiyasi**

Mulkdchilik nazariyasining asosiy qoidalari. Mulkdchilik ta'riflarining tahlili. Mulkdchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari. Mulkiy huquqlar. Mulkiy huquqlar taqsimotining tahlili.

**VIII-Mavzu: Shartnomalar nazariyasi**

Shartnoma tushunchasi. Sotish to'g'risidagi shartnoma va yollash to'g'risidagi shartnoma. Shartnomalarning xillari. Tashkilot tushunchasi va institut bilan tashkilot o'rtasidagi chegara. Qishloq xo'jaligida shartnoma munosabatlari.

**IX-Mavzu: Firma nazariyasi**

«Printsipal» bilan «agent» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosi. «Printsipal-agent» muammolarini hal etish variantlari. Firmaning ichki tuzilmasi. Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlanish trayektoriyasi. Firmalarning asosiy xillari.

**X-Mavzu: Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyalari**

Transaksiya xarajatlarining ordinalistik nazariyasi asosida tashkiliy tuzilmalarni amaliy tahlil qilish. Firmaning balansi uning tarkibi to'g'risidagi axborot manbai sifatida. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish va ularni kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish.

### **XI-Mavzu: Firmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tahlil qilish**

Mulkiy huquqlarning tavsiflanishi. Tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash mezonlari. Tashkiliy-huquqiy shakl firmaning strategiyasi haqidagi axborot manbasi sifatida.

### **XII-Mavzu: Davlat institutsional tashkilot sifatida**

Davlatning funksiyalari. Davlatning institutsional tabiati. Davlatning mohiyati va uning ta'rifi. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik kontseptsiyasi. Davlatning "muvaftaqiyatsizliklari"

### **XIII-Mavzu: Davlatlar xillari**

Davlat va «Printsipal-agent» muammosi. «Shartnomaviy» davlat tuskunchasi. «Ekspluatatorlik» davlati tushunchasi. Davlat xususiyatini baholash usullari va mezonlari. Korruptsiya muammosi.

### **XIV-Mavzu: Uy xo'jaligi va uning xillari**

Uy xo'jaligi ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaligining inson kapitalini rivojlantirish funksiyalari. Uy xo'jaligi turlari va uning oila bilan o'zaro bog'liqligi. Uy xo'jaligi turi shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari. Dehqon xo'jaliklari - uy xo'jaligining tarkibiy qismi sifatida

### **XV-Mavzu: Rivojlanishning institutsional nazariyasi va innovatsiya turlari**

Rivojlanish nazariyasining neoklassik varianti. D.J.M.Keynsning rivojlanish konseptsiyasi va iqtisodiy dinamikaning neokeynsian nazariyasi. Innovatsiyalarni klasslarga ajratish. Innovatsiya ishtirokchilarining taqqoslama tahlili. Institutsional va tashkiliy innovatsiyalar ustunligi.

### **III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Institutsional iqtisodiyot" fanining predmeti, mazmuni va tamoyillari
2. Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli
3. O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorlikni modellashtirish
4. Reja instituti va bozor instituti
5. Transaksion va transformatsiya xarajatlari hamda ularni tahlil qilishga nisbatan yondashuvlar
6. Kouz nazariyasi
7. Xufiyona iqtisodiyot
8. Mulkiy huquqlari nazariyasi va mulkchilik shakllari rivojlanishining evolyutsiyasi
9. Shartnomalar nazariyasi
10. Firma nazariyasi
11. Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyalari
12. Firmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tahlil qilish
13. Davlat institutsional tashkilot sifatida
14. Davlatlar xillari
15. Uy xo'jaligi va uning xillari
16. Rivojlanishning institutsional nazariyasi va innovatsiya turlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### **Laboratoriya mashg'ulotlari**

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

#### **Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

**Mustaqil ta'limning maqsadi** - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar) ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga qaratiladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarni mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish.

#### **Tavsiya etilgan mustaqil ishlar mavzulari ro'yxati:**

1. Institutsional nazariyalar paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Me'yor va institutlarning o'zaro harakati
3. Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari
4. O'yinlar nazariyasi va o'zaro harakatlarni modellashtirish.
5. Institutsionalizm nazariyasining rivojlanish davrlari.
6. Institutsionalizmning uchta asosiy yo'nalishlarining shakllanishi.
7. Institut tushunchasi va ularning asosiy tavsifi.
8. Reja va bozor institutlari qonuniyatlari
9. Institutlar va qoidalar.
10. Institutlar tipologiyasi.
11. Transaksion xarajatlari.
12. Transaksion xarajatlarning iqtisodiy ta'rifi.
13. Transaksion xarajatlarni tasniflash.
14. Transaksion xarajatlari va institutlar.
15. Tashqi samaralar ta'rifi va ularning klassifikatsiyasi
16. Mulkiy huquqlarning iqtisodiy nazariyasi.
17. Mulkiy huquqlarini tavsiflashga nisbatan yondashuvlar.
18. Mulkiy huquqlarini tavsiflashga nisbatan yondashuvlar.
19. Ingliz-saksoniya va rum-nemis huquqiy an'analari.

<p>20. Mulkiylik huquqlar to'plami sifatida</p> <p>21. Mulkiylik instituti rivojlanishining Yevropa va Osiyo mamlakatlarida tarkib topgan yo'llari.</p> <p>22. Xufiyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari.</p> <p>23. Institutlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>24. Institutlarning islohotlarning bosh maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari.</p> <p>25. Shartnoma tushunchasi va uni bozor iqtisodiyotdagi roli.</p> <p>26. Bozor va uning o'ziga xos tomonlari.</p> <p>27. Zamonaviy firmalar va ularning funksiyalari.</p> <p>28. Korporativ tuzilmalar va ular rivojlanishi istiqbollari.</p> <p>29. Tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilishning mohiyati va vazifalari.</p> <p>30. Davlatning tashkilot sifatida funksiyalari va vazifalari.</p> <p>31. Uy xo'jaligi turlari va uning oila bilan o'zaro bog'liqligi.</p> <p><b>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan qo'shimcha ravishda loyiha ishi, esse, tezis yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</b></p>	<p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- institutlar tushunchasi;</li> <li>- institutsionalizm mohiyati va tamoyillari, institutlar va ularning iqtisodiyotdagi roli;</li> <li>- rejali va bozor iqtisodiyot institutlari asosiy qonunlari;</li> <li>- transaksional va transaksion xarajatlar ahamiyati;</li> <li>- institutsional islohotlar maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari;</li> <li>- shartnoma(kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari;</li> <li>- bozor, firma va xufiyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari <b>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</b></li> <li>- institutsional nazariyaning paydo bo'lishi va uning konsepsiyalarini;</li> <li>- institutlar tizimi va o'yinlar nazariyasini;</li> <li>- mulk huquqlarini tasniflash belgilarini;</li> <li>- xufiyona faoliyatning kelib chiqish sabablarini;</li> <li>- maqsadlari va amal qilish sohalari, oqibatlarini;</li> <li>- institutlar faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalarini;</li> <li>- institutsional islohotlar bosqichlarini;</li> <li>- korporativ tizimlarini va ular guruhlarining o'ziga xos xususilari, ustunliklarini;</li> <li>- xufiyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi;</b></li> <li>- iqtisodiyotda jori etilgan institutlar tizimi;</li> <li>- ular faoliyatining rasmiy va norasmiy meyorlarini taqqoslash;</li> <li>- transaksiya xarajatlarini klassifikatsiyalash va ular ko'rsatkichlarini tahlil qilish;</li> <li>- shartnoma(kontrakt) tarkibi va ularning asosiy ko'rsatkichlarini baholash va tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilish;</li> <li>- davlat va firma faoliyatining rasmiy va norasmiy meyorlarini shakllantirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</li> </ul>
<p>4.</p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>• vaziyatni topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;</li> <li>• jaryonli-yo'natirilgan ta'lim;</li> <li>• muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• loyiha ishi bajarish;</li> <li>• mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>• taqdimot tayyorlash;</li> <li>• turli darajadagi testlarni yechish;</li> <li>• ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.</li> </ul>	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.</p>
<p>6.</p> <p><b>ASOSIY ADABIYOTLAR</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Погудева М.Ю., Гладилина И.П., Половова Г.А., Сульдина Г.А., Панкова Л.Н., Сергеева С.А., Брюханов Д.Ю. Институциональная экономика. – М.: Центр образовательного и научного консалтинга, 2017. – 172с.</li> <li>2. М.И.Одинова. Институциональная экономика, ВШЭ, 2007, 386 стр.</li> <li>3. И-71 Малкина М.Ю., Логинова Т.П., Лядова Е.В. Институциональная экономика: Учебное пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2015. – 258</li> <li>4. Институциональная экономика: учебное пособие / С.С. Винокуров [и др.]; по ред. д-ра экон. наук, проф. В.А. Грошева, д-ра экон. наук, проф. Л.А. Миеринь. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 125 с</li> <li>5. Беркинов Б.Б. Институционал иктисодиёт: Ўқув кўлланма. 2-нашр, қайта ишланган. – Т.: Иктисодиёт, 2013. – 226 б.</li> </ol> <p><b>QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. — М.: ИНФРА-М, 2002. - 416 с. - (Серия «Высшее образование»)</li> <li>7. Сухарев О.С. Институциональная экономика: теория и практика. Ин-т экономики РАН. — М.: Наука, 2008. — 863 с.</li> <li>8. Агабекян Р.А., Баядурян Г.А. Институциональная экономика: бизнес и занятость: Учебн. пособие. — М.: Магистр, 2008. — 462 с.</li> <li>9. Аузана А.А. Институциональная экономика: новая институциональная экономическая теория: учебник. — М.: ИНФРА. — 2006. — 416с</li> <li>10. Елисеев А.Н., Шульга И.Е. Институциональный анализ интеллектуальной собственности: Учеб. пособие. — М.: ИНФРА — М, 2005. — 192 с.</li> <li>11. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., Institutstional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma. -T.:2019.-170b</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.nber.com">http://www.nber.com</a> – AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byuroosi sayti.</li> <li>2. <a href="http://www.webofscience.com">http://www.webofscience.com</a> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</li> <li>3. <a href="http://www.scopus.com">http://www.scopus.com</a> - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</li> <li>4. <a href="http://www.elibrary.ru">http://www.elibrary.ru</a> – Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.</li> </ol>	

	<p>5. <a href="http://WWW.GOV.UZ">WWW.GOV.UZ</a></p> <p>6. <a href="http://WWW.LEX.UZ">WWW.LEX.UZ</a></p> <p>7. <a href="https://uchechnik.biz/book/344-institucionalnaya-vekonomika/41-snoski-k-teme-12/">https://uchechnik.biz/book/344-institucionalnaya-vekonomika/41-snoski-k-teme-12/</a></p>
7.	<b>Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.</b>
8.	<b>Fan / Modul uchun mas'ullar</b> G.T.Samiyeva - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.
9.	<b>Taqirizchilar:</b> Fayziyeva Sh.Sh. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professori v.b., i.f.n. T.Ergashev - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n.